



“DAVR” HODISASI VA UNING O‘RTA OSIYODA YUZ BERISHIDAGI O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLAR

Mamanov Abdurahim Abduhakimovich

Samarqand davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada “davr” hodisasining tarixiy-falsafiy mazmuni, uning jamiyat taraqqiyotini anglashdagi nazariy-metodologik ahamiyati hamda O‘rta Osiyo tarixiy jarayonlarida namoyon bo‘lishining o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Davr tushunchasining shakllanishi va rivojlanishiga oid qadimgi Sharq, yunon-rim falsafasi hamda keyingi tarixiy-falsafiy qarashlar qiyosiy o‘rganiladi. Shuningdek, O‘rta Osiyo hududida tarixiy davriylikning tabiiy-geografik, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy omillar bilan bog‘liqligi ochib beriladi. Maqolada tarixiy jarayonlarni davrlashtirishda mahalliy sivilizatsion xususiyatlar, davlatlilik an‘analari, madaniy almashinuvlar va tashqi ta’sirlarning o‘rni yoritilib, “davr” hodisasini universal va mintaqaviy mezonlar uyg‘unligida tadqiq etish zarurligi asoslanadi. O‘rta Osiyo tarixining o‘ziga xosligi davrlarning bir-biridan qat’iy uzilgan emas, balki ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayonlarning uzviy davomiyligi asosida shakllanganligi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: “davr”, davriylik, tarixiy taraqqiyot, O‘rta Osiyo, sivilizatsiya, tarixiy jarayon.

Kirish

Biz Temuriylar saltanati inqirozi tarixida “davr” ning o‘rnini o‘rganishga kirishar ekanmiz, avvalo “davr” haqida bir muncha mufassalroq tushunchaga ega bo‘lishimiz lozimligi o‘z-o‘zidan tushunarlidir.

Tarixiy taraqqiyotning davriyligi haqida qadimgi Misr, Hindiston, grek faylasuflari bir qancha fikrlar bildirib o‘tishgan. Masalan, hind brahmanlari kitoblarida dunyo ma’lum bir davrda qaytadan yaraladi deb hisoblaydilar va bugun yashayotgan insonlar yangi davrda yangi, hatto mutlaqo boshqa jonzot sifatida paydo bo‘lishi mumkinligini da’vo qiladilar.

Muhokamalar

Grek faylasuflarining “davriylik” haqidagi tushunchalari asosan tabiat hodisalaridagi takrorlanishga asoslangan.

Tarixiy taraqqiyotning davriyligi haqidagi ilk ilmiy (ilmiy deb atash mumkin bo‘lgan) tushunchalar arab tarixchisi va sayyohi Ibn Xaldun tomonidan yaratildi.

Ibn Xaldunning fikricha, dastlab ko‘chmanchilik turmush tarzi paydo bo‘lgan, bu turmush tarzining og‘irligi tufayli odamlarda mehr-oqibat,



qadriyatlarga amal qilish kuchli bo'lgan. Qabilalarning bir-biriga hujum qilishi va bir tomonning ikkinchi tomondan qullikka solinishi shaharlar va davlatlarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Shunday qilib, insoniyat hayot tarzining ikkinchi – shahar hayoti paydo bo'ladi. Asta-sekin boyliklarning paydo bo'lishi, odamlarning zeb-ziynatga ruju qo'yishi tufayli ularning avvalgi-ko'chmanchilarga xos bo'lgan qadriyatlariga zavol yetadi. Podshohlar ko'proq boylik orttirishga harakat qilib, soliqlarni ko'paytirishi natijasida oddiy odamlarda hokimiyatdan, hayotdan norozilik kuchayadi. Oxir-oqibatda davlat zaiflashadi va uni ko'chmanchilar bosib oladi. Har bir sulola o'rtacha 120 yil umr ko'radi.[1] Biroq, aytib o'tish joizki, “davr”ning nimaligini, ya'ni uning asosiy xususiyatlariva yuz berish qonuniyatlari haligacha to'la-to'kis o'rganilmagan. “Davr”, “davriylik” deyilganda ko'pchilik tabiat hodisalari, tabiatda davriy ravishda yuz beruvchi hodisalar, masalan, kun bilan tun almashinuvi, fasllarning har yili takrorlanib kelishi, quyosh faolligi bilan bog'liq davriy jarayonlarva shu kabi tabiiy takrorlanuvchi hodisalarni nazarda tutib kelmoqdalar.

Tarixiy taraqqiyotning davriyligi haqidagi tadqiqotlar ham ko'pchilik hollarda ijtimoiy hodisalar bilan tabiiy jarayonlar o'rtasida bog'liqlik topishga urinish, ijtimoiy hodisalar sababini tabiiy jarayonlar ta'siri bilan izohlashga urinish hollari ham kam emas. Masalan, tamadduniy maktabning taniqli namoyondalaridan biri bo'lgan L.N.Gumilyov nazariyasiga ko'ra “...tarixiy taraqqiyotning asosi tabiiy va ijtimoiy unsurlarning – biosfera, enos va kosmosning o'zaro ta'sirlashuvidir. Kosmik omil bo'lgan ilhomlanish (passionarnost) mo'jizasi insonlarga davriy tarixiy taraqqiyot ijodkorligi qobiliyatini yaratadi.”[2]

L.N. Gumilyov tamadduniy hamda “davriylik” nazariyasining eng ko'zga ko'ringan namoyondalaridan biri hisoblanadi. Lekin, yuqorida ko'rganimizdek “davr” hodisasini “kosmik mo'jiza” sifatida qarash ilmiylikdan anchagina uzoq ekanligini e'tirof etmasdan ilojimiz ham yo'q.

Hatto hozirgi kunlarda ham “davr” hodisasini inkor qiluvchilar ham uchrab turadi. Masalan, A. V. Povilaytisning fikricha, tanqidchilar davriylikning ba'zi elementlari mavjudligini e'tirof etganlari holda, davriylikning o'zi mavjudligini inkor qiladilar.”[3]

XIX asr Rossiya tarix fani yetakchilaridan biri N.Ya. Danilevskiy “davriylik” nazariyasidan rus-slavyan millatining ustunligi, uning kelgusida dunyoga hukmron bo'lishi kerakligini asoslash uchun foydalanishga harakat qiladi. Ma'lumki, “davriylik” nazariyasiga ko'ra har bir “davr” – “tug'ilish”, “o'sish”, “turg'unlik”, “inqiroz” bosqichlarini bosib o'tadi, so'ngra jamiyatda yangidan rivojlanish yuz beradi. Eski, chirigan jamiyat o'rnini yangi, yosh, taraqqiyotga qobil bo'lgan jamiyat egallaydi. Danilevskiy jamiyat o'rniga



millat tushunchasini qo'yadi – go'yo G'arbdagi avval taraqqiy etgan millatlar xarob bo'lib, o'rniga yosh, taraqqiyotga qobil millat – ruslar kelar ekan. Yevropaliklar buni bilar ekanlar va shuning uchun ham Rossiyani ko'rolmas ekanlar.

Tarixiy taraqqiyotning davriyligini e'tirof etadigan tadqiqotchilarning ichida taraqqiyotning davriyligini uzluksiz taraqqiyotga qarshi qo'yish, va kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyot qonuniyatlari mavjudligini inkor etish uchun foydalanuvchilar ham oz emas. Masalan, tamadduniy yondoshuv namoyondalari tarixiy taraqqiyotni bir-biridan alohida-alohida tamaddunlarning bir-biridan mustaqil ravishda paydo bo'lishi, rivojlanishi va yana barbod bo'lishi jarayoni sifatida qaraydilar.

Ana shu maktabning eng yirik vakillaridan biri A. Toynbi ana shunday tamaddunlardan 21 tasini sanab ko'rsatadi.[4]

Ammo, tarixiy taraqqiyotning bugungi ko'rinishi Toynbi qarashlarining haqiqatga zid ekanligini ko'rsatmoqda – dunyo tarixiy taraqqiyoti umumiy qonuniyatlari asosida kechayotganligi isbotga muhtoj bo'lmagan haqiqatdir. A.Toynbining tarix faniga qo'shgan ulkan xizmatlarini e'tirof etgan holda, uning ba'zi bir fikrlariga e'tiroz bildirishga majburmiz:

A.Toynbi tomonidan sanab o'tilgan 21 ta tamaddun ichida O'rta Osiyo tilga olinmaydi. Uning fikricha O'rta Osiyoda mustaqil, o'ziga xos tamaddun yaratilmagan, O'rta Osiyo tamadduni Eron tamaddunining bir qismi bo'lgan emish?! Toynbining bu fikrlari uning sivilizatsiyaning mohiyatini to'liq anglamaganligini yaqqol ko'rsatadi.

Bizning fikrimizcha u yoki bu hududda sodir bo'ladigan sivilizatsiya o'sha hududga xos bo'lgan asosiy ishlab chiqarish usuli asosida vujudga keladi. Eron bilan O'rta Osiyo o'rtasidagi hududiy yaqinlik va asosiy ishlab chiqarish usulining umumiyliigi (sug'orma dehqonchilik) bu ikki hudud tamaddunlari o'rtasidagi ba'zi bir o'xshash xususiyatlarni (mustabid hokimiyatchilik, mafkura, ijtimoiy fe'l-atvorning o'xshashligi va h.k) keltirib chiqargan. Tamaddun haqida tadqiqot olib boruvchi olim tamaddunning asosi nimada ekanligini anglamasa yanglish xulosalarga kelishi ham hech gap emas.

Tarixiy taraqqiyotning davriyligi yoki to'g'ri chiziqli ko'rinishga egaligi haqida bugungi kunlarda ham qizg'in bahslar davom etmoqda.[5] Taniqli rus tarixchisi B.N. Mironov bugungi rus fanida shakllangan "davriylik" konsepsiyasiga shunday baho beradi: "Konsepsiyaga muvofiq Rossiya uchun G'arbdan farqli ravishda to'g'ri chiziqli taraqqiyot emas, balki tebranma ko'rinishdagi taraqqiyot xosdir: u goh oldinga harakatlanadi, goh orqaga qaytadi, taraqqiyot inqiroz bilan almashadi, harakat tebranma ko'rinishda sodir bo'ladi."[6]

Bugungi tadqiqotchilardan N.S.Rozov "davrlar turli-tuman, har xil,



o'zgarib turuvchi ob'yektiv va sub'yektiv omillar sababli paydo bo'ladi" - deb yozadi.[7] Bunday tushuntirish amalda "davr" haqida hech qanday ma'lumot bermaydi.

Ayrim tadqiqotchilar shunchaki, tasodifiy hodisalardan, masalan, ikki-uch voqea o'rtasidagi juz'iy o'xshashliklardan o'zlaricha "qonuniyat" yaratib, go'yo "davr" hodisasi sifatida talqin qilishga urinadilar va o'zlarini kulguli ahvolga solib qo'yadilar:

"Razin, Pugachyov boshchiligidagi dehqonlar urushlari qatnashchilarining tarkibi va hududi jihatidan bir-biridan farq qilsada, ammo 1670 va 1770 yillarda yuz beradi, ya'ni oradan roppa-rosa yuz yil o'tgan."[8] Ikki hodisa o'rtasida aynan yuz yil o'tganligi bu ikki hodisa o'rtasida qonuniyat borligini qanday qilib isbotlashi mumkin?

Xuddi shunga o'xshash yana bir misol: "Tarixiy taraqqiyotning davriyligini yaqqol ko'rsatuvchi dalillar ko'p.

Shunday yorqin dalillardan biri Buyuk Fransuz revolyusiyasi bilan 1917 yilgi rus revolyusiyasidirki, ular hatto mayda-chuyda narsalarda ham bir-biriga mos keladi."[9]

Agarda "davriylik" nazariyasi tarafdorlari mazkur misoldan taraqqiyotning to'g'ri chiziqli nazariyasiga qarshi foydalanishni ko'zlagan bo'lsalar, bu dalil o'zlariga qarshi guvohlik beradi xolos.

Buyuk Fransuz revolyusiyasining, oradan qariyb, bir yarim asr o'tib, Rossiyada takrorlanishi Yevropada taraqqiyotning davriy ko'rinishida emas, balki to'g'ri chiziqli ko'rinishida borayotganligini ko'rsatadi. Agarda, mualliflar haq bo'lganlarida Buyuk Fransuz revolyusiyasi oradan ma'lum muddat o'tib, Rossiyada emas, Fransiyaning o'zida takrorlanishi lozim edi.

Chunki, "davr" hodisasi bir mamlakatdan boshqasiga ko'chib yurmaydi, balki ayni bir mamlakatning o'zida ma'lum bir qonuniyatlar asosida qayta va yana qayta sodir bo'ladi bu qonuniyatlar shunchalar aniq namoyon bo'ladiki, hech qanday bahs-tortishuvga o'rin qolmaydi. Shunday misollardan birini biz Xitoy tarixida ko'ramiz.

"Bir necha bor yuksalish va inqirozni boshdan kechirgan Xitoy tarixi alohida ahamiyatga egadir, taraqqiyotning yuksak bosqichiga erishgach o'zaro urushlar qoniga botadi. Yagona, markazlashgan Xitoy davlati hozir ham bor, birinchi markazlashgan davlat sifatida esa bundan 2000 yildan ortiqroq ilgari Sin Shixuandi tomonidan asos solingan edi. Ammo, ko'pchilik boshqa saltanatlar qulagach, kuldanda qayta tirilish ularga nasib etmadi."[10]

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, "davr" hodisasi tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichlarini anglash va tizimlashtirishning muhim vositasi bo'lib, uning mazmuni jamiyatning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishi bilan



uzviy bog'liqdir. O'rta Osiyo tarixida davrlarning shakllanishi hududning o'ziga xos tabiiy-geografik sharoiti, davlatlilik an'analari, madaniy almashinuvlar va turli sivilizatsiyalar ta'siri bilan belgilanib, tarixiy jarayonlarning uzluksizligi va vorisiyligini namoyon etadi. Shu bois O'rta Osiyo tarixini davrlashtirishda umumiy tarixiy mezonlar bilan bir qatorda mintaqaning o'ziga xos ijtimoiy-madaniy va sivilizatsion xususiyatlarini ham hisobga olish muhimdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Норино.В.Н.Теория Ибн Халдун.
https://spravochnick.ru/arheologia/teoriya_ciklizma
2. Лось В. А. Взаимосвязь циклических линейных подходов к динамике мирового развития. Журнал: Век глобализации №2 (14) 2014. –Б 67.
3. Повилайтис А. В. Проблема итеративности и цикличности исторического процесса: социально-исторический анализ. Журнал: общество, философия, история, культура 2020 ВАК. –стр 19.
5. Тойнби А. Постигание истории: Сборник. –Москва: 2001. –стр. 233.
6. Ахизер А. С. Россия: критика исторического опыта.
(Социокультурная динамика России) в 2 томах Т-1Новосибирск.1997.С-337-394. Дворниченко А.Ю. От циклизма до теологизма, или снова об особенностях российской истории. Вестник СПбГУ.История. 2023.Т68. Вып.2. С-531-548. Согрин В. В. Зверева Г. И.Репина Л.П. Современная историография Великобритании.М-1991. С-182-207. Шлезингер А.М.Циклы американской истории. М-1992.С 41-77.
7. Миронов Б. Н. Циклические концепции истории России в современной историографии. Вестник Санкт Петербургского университета. История.2023. Т-68. Вып 1.С-130-158.
8. Розов Н. С.Цикличность Российской политической истории как болезнь: возможно ли выздоровление? Н. Rozovnsu. ru.